

Aqchayev Farrux Shavkatovich
Jizzax davlat pedagogika
universiteti birinchi prorektori, tarix
fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O'ZBEK XALQINING AN'ANAVIY TURARJOY QURILISHI VA BEZAKLARIDA DINIY HAMDA MILLIY ATRIBUTLAR SIMBIOZI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek xalqining an'anaviy turarjoylari qurilishi va ichki bezaklaridagi diniy va milliy atributlar simbiozi tahlil qilinadi. Uy qurilishi jarayonidagi an'anaviy marosimlar, poydevor va to'sin qo'yish rituellari hamda ustalar va shogirdlar bilan bog'liq urf-odatlar milliy va diniy qadriyatlarining uyg'unligi va uzluksiz transmissiyasini ta'minlagan. Shuningdek, devor va shiftdagi geometrik va o'simliksimon ornamentlar, gilam va so'zanalardagi ramziy belgilar uy muhitini ma'naviy jihatdan poklash va muhofaza qilish vazifasini bajarganligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: turarjoy me'morchiligi, ichki bezak, milliy va diniy atributlar, islom san'ati, ornament, simbioz, ma'naviy muhit.

СИМБИОЗ РЕЛИГИОЗНЫХ И НАЦИОНАЛЬНЫХ АТРИБУТОВ В ТРАДИЦИОННОМ ЖИЛИЩНОМ СТРОИТЕЛЬСТВЕ И УКРАШЕНИИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

Аннотация. В статье анализируется симбиоз религиозных и национальных атрибутов в строительстве и внутреннем убранстве традиционных узбекских жилищ. Традиционные ритуалы закладки фундамента и установки основного бруса, а также обычаи, связанные с мастерами и учениками, способствовали гармоничному сочетанию и непрерывной передаче национальных и религиозных ценностей. Кроме того, геометрические и растительные орнаменты на стенах и потолках, а также символические изображения в коврах и вышивках обеспечивали духовное очищение и защиту жилой среды.

Ключевые слова: традиционное жилище, интерьер, национальные и религиозные атрибуты, исламское искусство, орнамент, симбиоз, духовная среда.

SYMBIOSIS OF RELIGIOUS AND NATIONAL ATTRIBUTES IN THE TRADITIONAL HOUSING AND DECORATION OF THE UZBEK PEOPLE

Annotation. This article examines the symbiosis of religious and national attributes in the construction and interior decoration of traditional Uzbek dwellings. Traditional rituals such as laying the foundation and installing the main beam, as well as customs related to master craftsmen and apprentices, ensured the harmonious combination and continuous transmission of national and religious values. Furthermore, geometric and vegetal ornaments on walls and ceilings, as well as symbolic motifs in carpets and embroidery, served to spiritually purify and protect the living environment.

Keywords: traditional dwelling, interior decoration, national and religious attributes, Islamic art, ornament, symbiosis, spiritual environment.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning yirik ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan jahon xalqlari va turli millatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va moddiy madaniy hayotini etnologik jihatdan o'rganish borasida ko'plab ilmiy-amaliy loyihalar tayyorlanib, transformasion jarayonlarni etnologik aspektida tadqiq etish asosida turli etnoslarni zamonaviylashuv tendensiyasi sabablarini aniqlash hamda alohida olingan mintaqalar madaniyatidagi yangilanish jarayonlariga

26 tabiiy-geografik joylashuv, xo'jalik yuritish shakli, real hayotda ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda diniy va milliy qadriyatlar ta'sirini tahlil etish borasida qator tadqiqotlar olib borilmoqda.

Yangi O'zbekistonda "Uchinchi Renessans" g'oyasini amaliyotga joriy etish hamda uni ro'yobga chiqarishda o'zbeklarga xos madaniy va ma'naviy resurslarni saqlash, ularni amaliy ahamiyatini ochib berish, shuningdek, xalqning o'zligini anglashi kabi masalalarga diniy va milliy an'analarning jamiyat hayotida tutgan o'rni misolida tahlil qilish dolzarblik kasb etmoqda. Bugun yurtimiz tarixida tub burilishlar ro'y berayotgan, jamiyat rivoji bir bosqichdan boshqasiga o'tayotgan, ijtimoiy-siyosiy tartiblar o'zgarib, toboro zamonaviy ko'rinish kasb etayotgan bir davrda jamiyat a'zolarining diniy va milliy an'ana va qadriyatlarga munosabati, ular bilan bog'liq maqsad va ideallari, qarash va tasavvurlari o'zgarib ketadi, muayyan tizim va unga asoslangan ba'zi ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy mezonlar kishilarni qoniqtirmay qo'yadi, jamiyatda yangi qadriyat tizimiga ehtiyoj tug'iladi, uni shakllantirish zaruratga aylanadi. Mazkur muammolardan kelib chiqqani holda bugungi zamonaviy o'zbek jamiyatida xalqimizning tarixan shakllangan rang-barang milliy, diniy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarini, urf-odat va marosimlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish va uni saqlab qolishni taqozo qiladi. Bu kabi qadriyatlar albatta, qadimdan saqlanib kelingan va uni bajarishda jamoaviy mehnatni talab etgan turar joylar bilan bog'liq an'analarda o'z aksini topadi.

An'anaviy turar joylar va ularda mujassamlashgan ichki va tashqi bezaklar o'zida xalqning uzoq o'tmishi, milliy mentaliteti, oilaviy va ijtimoiy munosabatlari va ko'plab etnik hamda etnografik xususiyatlarini mujassam etadi. Turar joylarning inson ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rni, ahamiyati hamda unga xos bo'lgan oilaviy, jamoaviy, hududlarga xos lokal urf-odat va marosimlar mohiyatidan kelib chiqqan holda aytish joizki, insonning asosiy moddiy va ma'anaviy madaniyati hamda dunyoqarashi u yashaydigan muhitda, xususan turar joylarda aks etadi.

Turar joy - bu inson tomonidan uzoq muddatga tanlab olingan, ko'pincha sun'iy yaratilgan maydonlar va u yerlarda xususiy tarzda yashash va mehnat qilish uchun qurilgan xonalardan tarkib topgan aholi turar joylari hamda uni o'rab turuvchi xo'jalik hududlaridir. Turar joy minglab yillardan beri kishilarning nafaqat yashash joyi, balki o'z madaniyati, oilaviy qadriyatlari, an'analari va marosimlarini amalga oshiradigan, shaxs erkinligini ta'minlaydigan qo'rg'oni hisoblangan. Umumiy qilib aytganda, devor bilan o'rab olingan, bitta umumiy kirish joyi orqali boshqa xonalar bilan bog'langan yashash, yordamchi xonalar (oshxona, yo'lak, hujra va shu kabilar) jamlanmasi turar joy sifatida e'tirof etilgan.

Jahonning ko'plab xalqlarida bo'lgani kabi o'zbeklar hayotida ota bobolardan qolgan eng katta meros bu uy-joy deb qaraladi. Uy o'zbek mentaletida qo'lga kiritilgan bebaho boyliklar, orzular yoki o'zi uchun eng yaxshisi deb bilgan narsalarining yig'indisidir. Shu sababli odamlar butun umr uylarini bezatish, to'ldirishga xarakat qiladi. Chunki uydagi narsa shaxsiy mulkni bildirgan va kishilar mehnati ortidan orttirgan narsani uyiga tashishga xarakat qiladi. Inson o'zining barcha bilim va ko'nikmalarini o'z uyiga sarflaydi. Insonlarning uyida turli soha vakillarining mahsulotlari – hunarmandlar, quruvchilar, duradgorlar, kulollar, to'quvchilar va boshqalarning mehnat na'munalari mavjud bo'lib, turar joy inson umrida erishgan yutuqlarini belgilashda katta ahamiyat kasb etib kelgan.

O'zbeklarda uy qurish inson hayotidagi muhim bosqichlardan biri sanalib, unda mazmuni va funksiyasiga ko'ra turli milliy va diniy marosimlar bajarilgan. Xalq orasida shakllangan milliy an'anaga ko'ra bu jarayon ma'lum tartib va qoidalar asosida olib borilgan. Azaldan o'zbeklarda uy barpo qilish bilan bog'liq jarayonlar erkaklarni ishi hisoblangan. Bu ishlarga ayollar aralashtirilmagan. Buning sabablari avvalo uy tikka qilish katta mehnat va jismoniy kuch talab qilgan hamda uzoq vaqtga cho'zilgan. Ikkinchi tomondan imorat oilaning asosiy vatani, qo'rg'oni hisoblanadi. Ushbu qo'rg'onda erkaklarni ustun bo'lishi, ya'ni erkakning hukmdorlik chegarasi hovlini devorlari bilan belgilanishi sababli uyni tikka qilish uning zimmasidagi ish hisoblangan. Boshqacha aytganda erkak turar joy barpo qilib o'zi rahbarlik qiladigan hududni, boshqaradigan maydonni belgilagan.

Uy tikka qilishda bo'lajak uy egalarining imorat uchun joy tanlashi birlamchi harakat hisoblanadi. Diniy jihatdan nopok, uy qurib bo'lmaydi deb qaralgan (eski qabristonlar, avliyolarning ko'milgan joylari va h.k.), uy qurishga yaramaydigan yerlar (zichligi past, suvga yaqin va boshqa xavf tug'diradigan, shamol aylanmaydigan va quyoshning tik tushishi to'silgan yerlar va x.k.)dan qochilgan hamda yashash, kasb-kor bilan shug'ullanish bilan bir qatorda jamiyat bilan aloqa qilishga qulay makon tanlab olingan. Bizningcha, uy qurish uchun joy tanlash masalasi faqat moddiy yoki amaliy ehtiyojlar bilan cheklanib qolmasdan, balki jamiyatning diniy tasavvurlari, milliy qadriyatlari va ko'p asrlik hayotiy tajribasi bilan uzviy bog'liq jarayon hisoblanadi. Aynan shu omillar asosida shakllangan qarashlar insonning tabiat va muhit bilan mutanosib yashashga intilishini aks ettiradi. Xususan, nopok deb hisoblangan yoki xavf tug'diruvchi hududlardan qochish orqali xalq o'z hayoti xavfsizligi, sog'lom turmush tarzi va ma'naviy osoyishtalikni ta'minlashga harakat qilgan.

An'anaga ko'ra turar joy qurishda xonadon sohibi ish sifati va mehnat qilishi o'ziga ma'qul bo'lgan, shuningdek, serfarzand usta bilan gaplashadi. O'zaro rozi-rizochilik bo'lgandan so'ng ish boshlanadi. Odatda uyni tikka qilishga kelishuv bo'lganda devorlar ko'tarilib tom yopilishi nazarda tutiladi. Uyni ichi va xovlini boshqa kam- ko'stini to'g'rilish alohida mehnat turi va alohida kelishuv hisoblangan. Ustalar imoratni tiklashda kun issiq va mu'tadil ob-havo davrini tanlashga ahamiyat berishgan. Hududlarda iqlimda juz'iy farqlar bo'lgani sababli qurilishni boshlash vaqti ham shu asosda kelib chiqqan. Masalan, Jizzax viloyati Baxmal tumanida binolar qurish uchun eng yaxshi mavsum yozning boshlanishi, aniqrog'i saraton hisoblanadi. Chunki bu vaqtda qurilgan turar-joylar yaxshi qurigan. Agar kuzda qurilsa devorlar qish fasliga qadar to'liq qurishga ulgurmagan. Toshkent, Samarqand va Buxoro hududlarida erta yoz, agar kun issiq kelsa kech bahor oylari qurilishni boshlash uchun mukammal vaqt hisoblangan. Janubiy O'zbekiston hududlarida faslni issiq kelishiga qarab bahor o'rtalarida boshlagan vaqtlar ham bo'lgan.

Imoratni qurish vaqti va quruvchi ustalar aniq bo'lgandan so'ng, uy egasi an'anaga muvofiq mahalla oqsoqollarini chaqirib qurbonlik (xudoyi) qiladi. Xalq orasida "qon chiqarish", "is chiqarish" kabi nomlar bilan ataladigan bu diniy marosimda oila a'zolari, mahallaning ulug' kishilari hamda bosh usta va yordamchi ustalar qatnashadi. Ushbu marosimda mulla va yoshi ulug' kishilar imorat betalofat qurib bitkazilishi hamda bu yerda yashovchilar farovon hayot kechirishini so'rab duo qilinadi. Ikkinchi tomondan esa, uy qurish uchun tanlab olingan yerdan o'tgan ajdodlar ro'higa atab Qur'on oyatlaridan tilovat qilinadi va bu orqali qadimdan saqlanib kelinayotgan diniy taomillarni bajarishgan bo'lishadi.

Shu marosimda qurilish ishlarini qachon boshlanishi hamda boshqa tashkiliy masalalar muhokama qilingan. Chunki, o'zbeklarning qarashiga ko'ra uy qurilishi ma'lum xosiyatli kunlarda boshlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayrim hollarda esa qurilish boshlanadigan hosiyatli kun avvaldan aniqlangan va shu kuni qurbonlik marosimi o'tkazilgan hamda marosimdan keyin qurilish ishlariga ramziy ma'noda ruxsat berilgan.

Imoratni barpo qilishda poydevor o'rnatish qurilishning ramziy ma'noda boshlanishi deb hisoblangan. Shu boisdan ham bu ishlar xayrli va omadli kunda boshlashga intilish kuchli bo'lgan. Jumladan, Farg'ona vodiysi aholisining qarashlariga ko'ra xayrli kunlar haftaning dushanba, chorshanba, payshanba va shanba kunlariga to'g'ri keladi. Xalq ayniqsa dushanba kunini haftaning boshi, payg'ambarimiz Muhammad (S.A.V) tavallud topgan kun, ya'ni xayrli kunlarning ulug'i, qurilishni shu kuni boshlagan ma'qul deb bilishgan. Jizzax viloyatining ayrim hududlardi chorshanba murodbaxsh kun bo'lib, shu kuni qurilishni boshlashni hosiyatli deb bilishgan. Shuni ta'kidlash kerakki, imorat qurilishida poydevor qo'yish jarayonining muayyan kunlar bilan bog'lab talqin qilinishi xalqning dunyoqarashida vaqt va makonga nisbatan shakllangan muqaddas tasavvurlar bilan izohlanadi. Ayniqsa, haftaning muayyan kunlarini diniy va madaniy ramzlar bilan bog'lash holati xalq tafakkurida qurilishni oddiy mehnat jarayoni emas, balki hayotdagi muhim bosqich sifatida anglashini ko'rsatadi. Shu jihatdan, poydevor qo'yish marosimlari xalqning an'anaviy madaniyati va irratsional qarashlarini o'zida mujassam etgan muhim etnografik holat sifatida baholanishi mumkin.

Qadimdan imorat poydevorining birinchi g'ishtini nuroniy, pok, shariatning barcha farzlarini bajarib kelgan, serfarzand, obro'-e'tiborli odam qo'ygan. Milliy an'analarga ko'ra imoratni ilk g'ishtini qo'yish uyning va unda ishovchi kishilarning keyingi taqdiriga ta'sir qiladi degan ishonch bo'lgan. Bugungi kunda ham odatda oilaning eng yoshi ulug'i yoki mahallada obro'ga ega kishilar bu ishlarni boshlab berishadi. Ayrim hollarda xalq orasida amlaga oshirgan ishi mustahkam va barchaga ma'qul uylarni qurishi bilan elni duosini olgan, halol va toza ish qilish bilan nom chiqargan ustalarga murojat qilish holari ham uchraydi.

Poydevor qo'yish bilan ish boshlangani bildirilgan bo'lsa, uyni qurish jarayonida ham turli marosimlar va urf-odatlar ado qilingan. Shunday marosimlardan biri uyning asosiy to'sinini (balor) qo'yish ("to'sin ko'tarish", "shopil qo'yish" nomlari bilan ataladi) chog'ida amalga oshirilgan. Asosiy to'sinni ko'tarish mo'ljallangan kuni uy egasi tomonidan alohida ziyofat qilingan. To'sinni devorga ko'tarishda uy egalari birorta mato yoki boshqa kiyimni ustaga atab to'sin ustiga tashlashgan. To'sin o'rnatilgach, atalgan matoni bosh usta olgan. Ba'zan usta ham bu hadiyani shogirdiga yoki yordamchisiga atagan holatlar ham uchraydi. Bu jarayonga ramziy ma'no berilishining sababi uyning to'sini imoratni tomini ko'taruvchi asosiy vosita bo'lgan va uni joyida mustahkam qotishi hamda uzoq vaqt xizmat qilishi uchun maxsus tadbir ko'rinishida o'tgan. Usta ham qo'yilayotgan to'sin o'zi qurayotgan uyining muhim qismi bo'lgani sababidan bu jarayonga katta ahamiyat bergan va uni o'rnatib bo'linishi katta vazifani yaquniga yetkazish deb baholagan.

Imoratni tiklashda xonalarning to'sinlari soni odatda toq bo'ladi. Lekin o'zbeklarning qarashlariga ko'ra toq son ijobiy ma'no kasb etmagan. Barcha narsa juft holatda qo'llanilishi yaxshilik ma'nosini bildirgan. To'sinlar sonini toq bo'lishini esa, xonadon sohibi bilan bog'lashadi. Ya'ni, oila boshi-erkakni qo'shib hisoblaganda to'sin yoki ustunlar soni juft bo'lgan. Shu orqali oilada erkakning o'rni va ahamiyatini kursatishga intilishgan. Lekin to'sinlar sonini toq bo'lishi qurilish jarayonida utalarga ayrim qulayliklarni keltirgan. Ya'ni, quruvchi ustalarning fikriga ko'ra, to'sin va ustunlar toq bo'lsa hamma narsani markazini aniq mo'ljallash qulaylik yaratgan. Shu sababli azaldan ustun va to'sinlar toq shaklda qo'llanilgan.

Shuningdek, qadimdan turar joy qurishda ishlatiladigan daraxtlarga alohida e'tibor berishgan sababi, ayrim daraxtlar xalq tasavvurida xosiyatli - yengil, ba'zilar esa, bexosiyat - og'ir sanalgan. Biri odamlarga yaxshilik, ikkinchisi esa - yomonlik keltirgan, chunki tagida yomon yoki yaxshi arvoq-jinlar o'ziga in qurgan. Laylak in qurgan daraxt muqaddas sanalgan, chunki u qurbaqa va ilonlarni yo'q qilgan, bu esa zardushtiylikda savob sanalgan. Qora qarg'alar in qurgan daraxt bexosiyat deyilgan. Buxoroda ikki daraxt-ustun orasidan o'tish yordamida dushmanlarning yomon niyatini qaytarish mumkinligiga ishonishgan.

Dunyo xalqlari qadimiy e'tiqodlarida bu kabi masalalarga ko'p duch kelamiz. Turk tarixchisi Murot O'rozning fikricha, Oltoy shomonlari qayin daraxtiga sig'inganlar, uni boshqa daraxtlardan ilohiyroq deb hisoblab kelganlar hamda unga hurmat ramzi sifatida qurbonlik marosimlarini uning atrofida o'tkazganlar. Faylasuf Ye. Berezikovning qayd etishicha, Oltoy shomonlari bemorlarni davolashga urinish chog'ida doimo o'z yonlarida oq qayin daraxti po'stlog'i va uning bir qismi (bargi yoki singan shoxchasi)ni olib yurganlar. Chunki, ular oq qayin daraxti buyuk tangri – Ulgen (Ko'k tangri) tomonidan Umayga ko'kdan yuborilganligi sababli, diniy marosimlar paytida ularning ruhi qo'llaydi, deb tasavvur qilganlar. Qayd etish kerakki, qayin daraxti Shotlandiyada marhumlar ruhi bilan bog'lansa, Boltiq bo'yi va Markaziy Osiyo xalqlarida poklik ramzi sifatida ulug'lanib kelingan. Bu esa qadimiy diniy tasavvurlar transformatsiyasi asosida mahalliy aholining turar joy barpo etish bilan bog'liq qarashlarida o'z aksini topganligini ko'rsatadi.

Turar joyni bunyod etishda eng asosiy o'rinda turuvchilar bu albatta ustalar hisoblanadi. Shu boisdan ham ularni rozi qilishga intilish o'zbek xalqi diniy va milliy an'analarda ustuvorlik kasb etib kelgan. Misol uchun Xorazm zargarlari o'z do'koniga kirib kelganida va undan chiqib ketishidan oldin, ustalari sha'niga duo o'qigan. Ipakchilar bir oy davom etuvchi yangi matoni ishlash jarayonidan oldin va ish nihoyasiga yetgach, ustalari sha'niga ziyofat uyushtirishgan.

O'lkamizda o'tgan ustalar xotirasiga atab, hunarmand shogirdlarning uylarida navbatma-navbat taom tortilgan. Turli soha hunarmandlari yangi ustaxona ochishdan oldin bo'g'irsoq qovurgan, uylari va ustaxonasida jumaga o'tar kechasi hamma yerni tozalab, o'tgan ustalarning ruhlari kelishiga atab kechasiga chiroq yoqib qoldirishgan. Hozirgi kunga qadar ajdodlar va usta-ustozlar ruhini e'zozlash, ularga hurmat ko'rsatish, qadrlash tarbiyasi asrlar davomida o'zaro chambarchas bog'langan.

Bizningcha turar joy qurilishi va hunarmandchilik faoliyatida ustalarning alohida maqomga ega bo'lishi o'zbek xalqining an'anaviy madaniyatida shakllangan kasbiy identifikatsiya, ustoz-shogird instituti hamda sakral mehnat tushunchalari bilan bevosita bog'liq holda izohlanadi. Ustalarni rozi qilishga qaratilgan marosimlar, duo va ziyofatlar ritual amaliyotlar sifatida mehnat jarayonini sakrallashtirish, ya'ni uni oddiy iqtisodiy faoliyatdan ma'naviy-ramziy tizim darajasiga ko'tarish vazifasini bajargan. O'tgan ustalar xotirasiga bag'ishlangan marosimlar esa ajdodlar kulti, kollektiv xotira va madaniy merosning avlodlararo transmissiyasi kabi antropologik kategoriyalar nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur an'analar orqali jamiyatda kasbiy bilimlar, mehnat etikasi va ma'naviy qadriyatlarining uzluksiz qayta ishlab chiqilishi ta'minlangan. Shu bilan birga, ustalar ruhini e'zozlashga qaratilgan urf-odatlar hunarmandchilik muhitining ijtimoiy hamjihatlik, simvolik kapital va ma'naviy legitimatsiya mexanizmlarini mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, ustalar va ustozlarga nisbatan shakllangan e'tiqod va marosimlarni o'zbek xalqining an'anaviy mehnat madaniyati doirasidagi etnomadaniy tizim, ijtimoiy institut hamda ramziy kommunikatsiya shakli sifatida ilmiy jihatdan talqin qilish mumkin.

Bugun ham turar joy avvalida va'dalashgan holatga keltirilgandan so'ng (bitgandan so'ng) ustalar uchun alohida yakuniy marosim tashkil qilinadi. Bu marosim ishni tugashini bildirib, unda usta va shogirdlar, uy egalari va yana bir necha yaqin insonlar ishtirok etadi. Ilgari ish bitgandan so'ng mahalla oqsoqoli yoki mulla ishtirokida uy egasi bilan usta o'rtasida qilingan xizmatga to'lov amalga oshirilgan va hammani oldida usta rozi qilingan. Lekin bugungi kunda usta bilan uy egasining oldi berdisi ham turlicha bo'lmoqda. Ya'ni, uy egasi ustaga kelishilgan narxning ma'lum foizini bo'nak sifatida oldindan beradi. Usta va uy egasi uy to bitgunga qadar bo'lak-bo'lak shaklda xizmat haqqini oldi-berdi qilishi yoki uy bitgandan so'ng ma'lum davrgacha to'lov qilishni o'zaro kelishib olish holari ham uchraydi. Shu nuqtai-nazardan, qurilish tugagandan so'ng amalga oshiriladigan marosim ish tugaganini hamda ustalarni pul bilan o'lchanmaydigan xizmatlari, kelishuvga kirmagan ishlari uchun rozilik olish maqsadida, ularga rahmat aytishni ko'zlagan holda tashkil qilinmoqda.

O'zbek xalqining an'anaviy uy-joy me'morchiligi va ichki bezaklari xalqning milliy tafakkuri, diniy e'tiqodlari va qadimiy ramziy tasavvurlarini ifodalovchi o'ziga xos madaniy tizim hisoblanadi. Uy arxitekturasida qo'llanilgan ichki tuzilish, xonalarning o'zaro joylashuvi hamda bezak elementlari xalq hunarmandchiligida shakllangan ramzlar bilan chuqur uyg'unlik kasb etadi.

An'anaviy uylarda ichki makon qat'iy ma'naviy tartib asosida tashkil etilgan. Masalan, mehmonxona yoki "katta xona" jamoatchilik va ochiqlik ramzi bo'lib, bu yerda qo'llanilgan bezaklar ham shunga mos ravishda o'zida to'kinlik va farovonlik g'oyasini ifodalagan. Uy ichki tuzilishida diniy an'analar ham muhim o'rin egallagan. Ostonaning muqaddas deb qaralishi, xonaga kirishda ehtiyotkorlik va hurmat talab etilishi, ibodat uchun alohida joy ajratilishi islomiy qadriyatlar ta'sirida shakllangan. Shu bilan birga, devor va shiftlardagi geometrik va o'simliksimon ornamentlar islom san'atiga xos tasviriy cheklovlar asosida yaratilgan bo'lib, ular uy muhitini ma'naviy jihatdan poklash vazifasini bajargan. Devorlarga ilingan gilamlar, so'zanalar va turli matolarda aks etgan "gardani shutur", "poyi murg", "qo'chqor shoxi" kabi naqshlar uy arxitekturasidagi barqarorlik, himoya va avlod davomiyligi tushunchalarini mustahkamlagan.

Gilamdo'zlik va so'zanachilikda uchraydigan hayvon va qush obrazlari uying ichki muhitini ramziy jihatdan boyitgan. Masalan, Farg'ona vodiysida keng tarqalgan "qo'chqor shoxi" naqshi ustunlar, eshik tepalari va shift bezaklarida ham uchraydi. Bu naqsh zardushtiylik davridanoq serhosillik va kuch-qudrat ramzi sifatida shakllangan bo'lib, keyinchalik islomiy tasavvurlar bilan uyg'unlashgan. Kuzatishlarimiz natijasi sifatida ta'kidlash mumkinki, "qo'chqor

30 shoxi” naqshining turli madaniy qatlamlarda qayta-qayta namoyon bo‘lishi milliy amaliy san’atda ramziy ma’nolarning uzluksizligi va moslashuvchanligidan dalolat beradi. Bu esa xalq amaliy san’atida qadimiy e’tiqodlar va yangi diniy tasavvurlarning ziddiyatsiz uyg‘unlasha olganini ko‘rsatadi.

Qush obrazlari esa uy arxitekturasi va hunarmandchilikda alohida o‘rin tutadi. Buxoro va Samarqand hududlarida uchraydigan tovus, humo, bulbul naqshlari nafaqat matolar va gilamlarda, balki devor naqqoshligi va ganchkorlik bezaklarida ham aks etgan. Zardushtiylikda tovus quyosh ramzi hisoblansa, islomiy an’anada u jannat va ezgulik timsoli sifatida talqin qilinadi. Shu bois bunday ramzlar uyni ilohiy muhofaza ostida deb tasavvur qilishga xizmat qiladi.

Uyning kirish qismi — ostona va eshik bezaklarida ham hunarmandchilik ramzlari keng qo‘llanilgan. Yog‘och o‘ymakorligida ishlangan “ilon izi”, “hayot daraxti” elementlari xonadonni yovuz kuchlardan asrash g‘oyasi bilan bog‘langan. Ayniqsa, Marg‘ilon misgarchiligida uchraydigan ilon izi naqshi uy jihozlari orqali arxitektura bilan uzviy bog‘liq holda qo‘llangan.

Zamonaviy turar joylar arxitekturasi ham mazkur ramzlar yangi shakl va mazmunda namoyon bo‘lmoqda. Milliy uslubda qurilgan uylarda ayvon, mehmonxona va oshxona intererlarida gilam, so‘zana, keramika va yog‘och o‘ymakorligi elementlari qo‘llanilib, an’anaviy ramzlar zamonaviy dizayn bilan uyg‘unlashtirilmoqda. Bu jarayon milliy o‘zlikni saqlash va ma’naviy merosni davom ettirishga qaratilgan ijtimoiy ehtiyoj sifatida namoyon bo‘ladi. Bizningcha, uy arxitekturasi va hunarmandchilik ramzlari o‘zaro chuqur bog‘liq bo‘lib, ular birgalikda xalqning milliy va diniy dunyoqarashini ifodalaydi. Zamonaviy turar joylarda ham ushbu uyg‘unlikning saqlanishi etnomadaniy merosning uzluksizligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, turar joylarni barpo etish jarayonida qo‘llanilayotgan qurilish xom-ashyolari, arxitekturaviy yechimlar hamda tashqi va ichki bezak elementlarining shakllanishi zamonaviy tendensiyalar ta’sirida yangilanib borayotgan bo‘lsa-da, imoratni tiklash, unga ko‘chib kirish hamda usta-quruvchilar faoliyati bilan bog‘liq marosim va tasavvurlarda milliy va diniy an’analarning barqaror saqlanib qolayotgani kuzatiladi. Ayniqsa, usta mehnatiga nisbatan shakllangan ma’naviy javobgarlik, ular haqqini adolatli ado etishdan qo‘rqish, uy makonini ramziy va estetik jihatdan bezash kabi jarayonlar xalqning an’anaviy mehnat etikasi hamda ma’naviy dunyoqarashining uzviy davomidir.

Asrlar davomida shakllangan imorat qurishga oid an’analarning bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolishini, avvalo, yangi barpo etilgan turar joyda istiqomat qiluvchilarning jismoniy barqarorligi, ruhiy xotirjamligi va uzoq muddatli farovon hayotini ta’minlashga qaratilgan ezgu niyatlar majmuasi bilan izohlash mumkin. Bu holat turar joyni faqat funksional makon sifatida emas, balki inson hayoti, oilaviy farovonlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi sakral makon sifatida anglashga asoslangan an’anaviy tafakkurning saqlanib qolganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, turar joy bilan bog‘liq arxaik qarashlar xalq mifologiyasi, etnografiyasi va marosim amaliyotida uchraydigan universal etnomadaniy elementlardan biri bo‘lib, ular orqali uy makoni himoyalovchi ramz, kuch-quvvat manbai, orzu-umidlarni moddiylashtiruvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Mazkur tasavvurlar turar joyni doimiy ravishda muqaddaslashtirish, uni e’zozlash va asrashga qaratilgan ijtimoiy mexanizmlarni shakllantirgan. Demak, turar joy qurilishiga oid an’anaviy qarashlar va marosimlarni etnologik hamda ijtimoiy-antropologik nuqtai nazardan tahlil qilish, xalqning makonga nisbatan munosabati, madaniy identifikatsiyasi hamda ma’naviy qadriyatlar tizimini anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Материальная культура: свод этнографических понятий и терминов. – Москва: Наука, 1987. – 144-стр.
2. Дала ёзувлари. Самарқанд вилояти Ургут тумани Янгиобод маҳалласи. 2022-йил.
3. Дала ёзувлари. Жиззах вилояти Бахмал тумани Беккелди қишлоғи. 2023 йил.

4. Зунунова Г. Материальная культура узбеков Ташкента: трансформация традиций (XX - начало XXI в.). – Ташкент: Extrum-press, 2013. – 106-стр.
5. Дала ёзувлари. Самарқанд вилояти Ургут тумани Янгиобод маҳалласи. 2022 йил.
6. Хўжахонов И. Фарғона водийси қишлоқ аҳолиси анъанавий турар жойларининг этнохудудий хусусиятлари. (XIX аср охири – XX аср бошлари): тар.фан.ном.учун дисс... – Тошкент, 2007. –132-бет.
7. Дала тадқиқотлари. Жиззах вилояти Зомин тумани Пешағор қишлоғи. 2024 йил.
8. Нозилов Д.А. Ўрта Осиё меъморчилигида одатлар, қоидалар ва рамзий ифодалар. – Тошкент: Санъат, 2011. – 8-9-бет
9. Дала ёзувлари. Жиззах вилояти Фориш тумани Гараша қишлоғи. 2023 йил.
10. Дала тадқиқотлари. Жиззах вилояти Зомин тумани Пешағор қишлоғи. 2024 йил.
11. Дала ёзувлари. Жиззах вилояти Бахмал тумани Беккелди қишлоғи. 2023 йил.
12. Писарчик А.К О пережитках культу ивы у таджиков // Прошлое Средней Азии. - Душанбе, 1987. 251-260-б
13. Мурот Ўроз. Турк асотирлари // Сирли олам. – 1991. – №9.Б-11.
14. Березиков Е. Рухлар ўйинига ташриф // Сирли олам. – 1992. – №1. Б-11.
15. Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. Б-68.
16. Снесарев Г. Реликты домусульманских верований и обрядов узбеков Хорезма. – Москва: Наука, 1969. 121-122-стр
17. Дала тадқиқотлари, Жиззах ва Самарқанд вилоятлари. 2023 й.
18. Қобулов Э. Ўзбек халқ меъморчилиги ва безак санъати. – Тошкент, 1999.
19. Каримов И.А. Ўзбек халқ амалий санъати ва меъморчилиги. – Тошкент: Фан, 2010.
20. Ремпел Л.И. Искусство народов Средней Азии. – Москва, 1987.
21. Исмоилов А. Анъанавий уй-жой маданияти ва диний тасаввурлар. – Самарқанд, 2015.
22. Абдурахмонов Б. Замонавий турар жойларда миллий анъаналар. – Тошкент: Маънавият, 2020.